

O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATIDA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING IFODALANISHI

Husanova Shaxina Abdurashid qizi
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbek tili izohli lug'atining 1981-yildagi va 2006-yildagi nashrlarida ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar izohi, ular o'rtasidagi o'xshashliklar va tafovutlar o'zaro qiyosiy o'rganildi. Tilning leksik sathida bo'lgan o'zgarishlar ko'rsatildi.

Annotation

In this article, the explanations of the words adopted from English to Uzbek in the 1981 and 2006 editions of the Uzbek annotated dictionary were compared, the similarities and differences between them. The changes in the lexical level of the language were shown.

Аннотация

В данной статье сравнивались толкования слов, принятых из английского языка в узбекский в изданиях 1981 и 2006 годов узбекского аннотированного словаря, сходства и различия между ними. Показаны изменения на лексическом уровне языка.

Kalit so'zlar: Leksikografiya, lug'at va uning turlari, olinma so'zlar, integratsiya.

Keywords: Lexicography, vocabulary and its types, loanwords, integration.

Ключевые слова: Лексикография, лексика и ее виды, заимствования, интеграция.

Inson yaralibdik, o'zini o'rab turgan olamdagi ko'ziga ko'ringanva ko'rinmagan narsa hodisalarni anglashga, tushunishga va tushuntirishga harakat qiladi. Bunda u turli xil aloqa vositalaridan foydalanadi. Buning uchun chizma, mimika kabi yordamchi aloqa vositalari ham mavjud. Ammo ular orasi eng asosiysi TILdir. Dunyo mamlakatlarining rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy masalalarda hamfikrligi yoki raqobatdosh bo'lishi natijasida tillar integratsiyasi yuzaga keldi, yangi tillar paydo bo'ldi. Ayrim tillar unutilib o'lik tillar qatoridan joy oldi. Siyosiy jarayonda mustamlakachi davlatlar o'z tillarini o'zga o'lkalarga yoydilar. Buning natijasida tillar tabiiy va sun'iy tarzda o'zlashdi.

Tilning jamiyat va davlat hayotida naqadar muhim ahamiyatga molik ekanligini anglagan olimlar, adiblar o'z tillarini asrab qolish uchun qattiq harakat qildilar. Asarlari orqali tilning jozibadorligi, so'z boyligini isbotlashga urindilar. Shu tariqa tilshunoslik fanining vujudga kelishi va taraqqiy etishiga zamin yaraldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida tilshunoslik ham bo'limlarga bo'linib ketdi. Tilning boy leksik qatlami lug'atlarda aks etadi. Shu o'rinda lug'at nima? U til uchun qay darajada ahamiyatli?

Tildagi mavjud soʻz va iboralar majmui LUGʻAT tarkibi deyiladi. Tilning lugʻat tarkibi doimo boyib, rivojlanib boradi. Bu jarayon ikki asosda amalga oshadi.

1. Ichki manba

2. Tashqi manba

Sheva va lahjalaridan soʻz olish, tildagi mavjud soʻzlarga yasovchi qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻz yasash ichki boyish hisoblanadi.

Chet tillaridan soʻz oʻzlashtirish asosida lugʻat tarkibini boyitish tashqi boyishdir. Tilshunoslikning lugʻat tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shugʻullanuvchi boʻlim leksikografiya deyiladi. Bugungi kunda bu oʻrinda lugʻatshunoslik termini ham keng qoʻllanilmoqda. Lugʻatlar 2 xil boʻladi:

1. Qomusiy lugʻatlar

2. Lingvistik lugʻatlar

Mahmud Koshgʻariy ibn Husayn ibn Muhammadning XI asrda tartib qilingan “Devonu lugʻatit turk” asari turkiy xalqlar uchun ilk qomusiy lugʻatdir. Oʻzbek lugʻatshunosligi ham shu asar asnosida taraqqiy topgan. Bundan tashqari yana bir qancha olimlar ham lugʻat tartib qilishgan. Lingvistik lugʻatlar oldiga qoʻyilgan maqsadiga koʻra bir qancha turlarga boʻlinadi. Shulardan izohli lugʻatlarga toʻxtalib oʻtamiz. Lugʻaviy birliklarning maʼnolari, grammatik uslubi va boshqa belgilari qayd etilgan lugʻat izohli lugʻatdir. Bu turdagi lugʻatlarda soʻzlarning qaysi turga mansubligi, oʻz va koʻchma maʼnolari, sinonim va antonimlari ham berib oʻtiladi. Lugʻatchilik oʻzbek adabiy tilining shakllanish davridan boshlab, keying barcha davrlarida ham doimo adiblar, ziyolilar va tilshunoslarning diqqat markazida boʻlib kelgan. Afsuski, oʻtgan asrda boʻlgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar oʻlaroq tilimizga munosabat susaydi. Har bir mustamlakachi davlat oʻziga qaram boʻlgan davlatni chin maʼnoda qaramlashtirish maqsadida uni tilidan, dinidan va milliyligidan ayirishga harakat qiladi. Bu siyosatning qora bulutlari bizning ham osmonimizni chetlab oʻtmadi. 1981- yilga kelibgina oʻzbekcha-ruscha lugʻatlar asnosida birinchi marta 2 tomli Oʻzbek tilining izohli lugʻati tuzildi va unga 60 mingta soʻz kiritildi. Lugʻat xonologik nuqtai nazardan Oktyabr davlat toʻntarishidan keyin jamiyatda paydo boʻlgan va qoʻllanilgan soʻzlar asosida bir guruh olimlar tomonidan qurildi.

Bilamizki, tilning lugʻat tarkibidagi rivojlanish jarayoni boshqa sohalarga qaraganda tez va sezilarli boʻladi. Bu oʻzgarishlar leksikani faqat miqdor jihatidan emas, balki fikr jihatidan ham oʻzgartiradi. Leksikadagi taraqqiyot lugʻat sathidagi ayrim soʻzlarning yoʻqolishiga, yangi soʻzlar paydo boʻlishiga, ayrim soʻzlarning yangi maʼno kasb etishiga bevosita sababchidir. Mamlakatimizda mustaqillik arafasida va mustaqillik yillarida til siyosatida jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi:

Til taraqqiyotida oʻz ichki manbalar orqali leksemalar hosil qilish qonuni toʻla kuchga kirdi. 1989-yilda oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, 1995-yilda lotin alifbosining takomillashtirilishi va bir qancha til haqidagi qonunlar oʻzbek tiliga boʻlgan eʼtiborning namunasidir. 2006-yilda bir guruh olimlar tomonidan 5 tomi Oʻzbek tilining izohli lugʻati tuzildi. Unga 80 ming soʻz kiritildi.

Quyida Oʻzbek tilining izohli lugʻati (1981-yil va 2006-yildagi nashrlari)dagi ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar, ularning mazmun mundarijasi hamda qoʻllanish oʻrinlari haqida soʻz yuritiladi. Ikkala lugʻatda ham ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar miqdori 5%ni tashkil etadi, ammo

ular o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada. Dastlabki lug'atda (1981) o'zbek tilining mavqeyi ancha past o'rinlarga qo'yildi. U Sovet hukumati davrida yaratilganligi uchun ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning barchasi rus tili asosida ko'chgan deb qayd etiladi.

Aysberg¹ (*Keyingi o'rinlarda lug'atning sahifasi ko'rsatiladi*) [r<ingl]-suvda yuradigan muz bo'lagi. (1981)

Yangi nashrda bunga olimlar aniqlik kiritishdi:

Aysberg² [ingl.iceberg-muz tog']-Qutb dengizida qirg'oqdan yoki muz tepaliklaridan o'pirilib tushib, suvda suzib yuradigan katta muz. (2006)

Babbit[r<ingl]-Qalay va qo'rg'oshinga surma, mis va boshqa metallar qo'shib tayyorladigan qotishma.(1981)

Babbit[Amerikalik ixtirochi Babbit (Babbitt)nomidan]- Qalay yoki qo'rg'oshinga mis, surma kabi metallar qo'shib tayyorladigan, ishqalanib yeyilishni kamaytiruv qotishma. (2006)

Basketbol [r<ingl]-sport. (1981)

Basketbol[ingl.basket-savat, to'r + balle-to'p]-Ikki komanda a'zolarining to'pni bir-birlariga qo'lma-qo'l oshirib, muayyan balandlikdagi taxtaga o'rnatilgan to'rli xaltaga tushirish o'yini. (2006)

Biznes[r<ingl]-Kapitalistik jamiyatda, mamlakatda shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish. (1981)

Biznes[ingl.businnes-ish, mashg'ulot]-Daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati; tijorat; ishbilarmonlik(2006)

Biznesmen[r<ingl]-Biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs.Korchalon. (1981)

Biznesmen[ingl.businessmen-biznes qiluvchi shaxs]-Ishbilarmon. (2006)

Blyuming[r<ingl]-Temir yoyadigan kuchli prokat mashinasi. (1981)

Blyuming[ingl.blooming-quyma po'lat xom-ashyo]- Temir yoyadigan yuqori quvvatli prokat stani. (2006)

Boykot[r<ingl]-Nazar e'tibordan chetda qoldirish yo'li bilan biror kimsa, narsa, tashkilot va shu kabilarga qarshi siyosiy yoki ommaviy kurash olib borish. (1981)

Boykot[ingl.boycott-Anglyalik katta yer egasi Ch.K.Boykot(Boycott) nomidan]-Alohida shaxs, tashkilot yoki davlatni nazar-e'tibordan chetda qoldirish, yakkalab maqsadida u bilan munosabatlarni to'liq yoki qisman to'xtatishdan iborat siyosiy va iqtisodiy kurash shakli. (2006)

Buldozer[r<ingl]-Yer surish va tekislash uchun maxsus keskich-surgich bilan uskunalangan traktor. (1981)

Buldozer[ingl.bulldozer-katta kesaklarni maydalovchi]- Yer surish va tekislash uchun maxsus keskich-surgich bilan uskunalangan traktor. (2006)

Vagon[r<ingl]-Temir yo'llarda passajir yoki yuk tashish uchun belgilangan maxsus arava. (1981)

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva"РСХ ТИЛИ" nashriyoti 1981(Keyingi o'rinlarda "1o'sha kitob")

²O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston davlat milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti.2006(keyingi o'rinlarda o'sha kitob)

Vagon[ingl.wag(g)on-arava]- Temir yo'llarda yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan, ochiq yoki yopiq (uy) shaklidagi g'ildirakli maxsus qurilma. (2006)

Vaterpolo[r<ingl]-Suvda to'pni qo'l bilan urib, raqib darvozasiga kirgizishdan iborat o'yin. (1981)

Vaterpolo[ingl.water-suv+polo-to'p]-Suv polosi. (2006)

Vatman[r<ingl]-Vatman qog'oz chizma chizish va rasm olish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz. (1981)

Vatman[ingl.Qog'oz fabrikasi egasi J.Uotmen(Whatman)nomidan]- Vatman qog'oz chizma chizish va rasm olish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz. (2006)

Vatt[r<ingl]-Elektr quvvatining o'lchov birligi. (1981)

Vatt[ingl.watt<ingliz olimi Jeyms Uatt(Watt)ismidan]- Xalqaro birliklar tizimida quvvatning universal o'lchov birligi. (2006)

Vilt[r<ingl]-G'o'za, kartoshka, makkajo'xori kabi o'simliklarda bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar orqali tarqaladigan kasallik. (1981)

Vilt[ingl.wilt-so'kimoq, qurimoq]- G'o'za, kartoshka, makkajo'xori kabi o'simliklarda bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar orqali tarqaladigan kasallik(bu kasallik o'simliklarning so'lib qolishiga,barglari qovjirab, halok bo'lishiga olib keladi). (2006)

Volleybol[r<ingl]-Qarshi komanda maydoniga qo'l bilan urib va to'rdan oshirib ko'proq to'p tushirish o'yini. (1981)

Volleybol[ingl.volley-urib qaytarmoq+ball-to'p]-Qarshi komanda maydoniga qo'l bilan urib va to'rdan oshirib tushirish o'yini. (2006)

Gol[r<ingl]-Qarshi komanda darvozasiga to'p kiritib olingan achko. (1981)

Gol[ingl.goal-mo'ljal, nishon]-Futbol, xokkey o'yinlarida qarshi komanda darvozasiga kiritilgan to'p. (2006)

Gorilla[r<ingl]- G'arbiy Afrikada yashovchi eng yirik odamsimon maymun. (1981)

Gorilla[ingl.gorilla]- G'arbiy Afrikada yashovchi eng yirik, kuchli odamsimon maymun. (2006)

Darvinizm[r<ingl]-Darvin ta'limoti. (1981)

Darvinizm[Qaysi tildan kirganligi kitobda ko'rsatilmagan]-Jonli tabiatning tarixiy rivojlanishi, hayvonat turlari va o'simlik organizmlarining tabiiy tanlanish yo'li bilam paydo bo'lishi haqidagi ingliz olim Ch. Darwin ta'limoti. (2006)

Demping[r<ingl]-Chet el bozorini egallash va undan raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida molni o'z mamlakatidagi narxdan ancha arzon sotish. (1981)

Demping[ingl.doompimg-arzon eksport]- Chet el bozorini egallash va undan raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida molni xorijda o'z mamlakatidagi yoki jahon miqyosidagi narxdan ancha arzon sotish-raqobatli kurash vositalaridan biri. (2006)

Dollar[r<ingl]-AQSH, Kanada va bir qancha mamlakatlarda pul birligi. (1981)

Dollar[ingl.dollar<nem. Taller-oltin yoki kumush tanga]-AQSH pul birligi(1786-yildan beri). (2006)

Dominion[r<ingl]-Britaniya imperiyasi tarkibiga kirgan, formal jihatdan o'zini-o'zi idora qiluvchi, lekin ichki va tashqi siyosatda unga qaram bo'lgan davlat. (1981)

Dominion[ingl.domimion <lot.dominium-biror narsaga egalik, hukmdorlik]- Britaniya imperiyasi tarkibiga kirgan, formal jihatdan o'zini-o'zi idora qiluvchi, lekin ichki va tashqi siyosatda unga qaram bo'lgan davlat. (2006)

Xuligan[r<ingl]-Jampoat tartibini buzuvchi, bezorilik bilan shug'ullanuvchi. (1981)

Xuligan[ingl.hooligan<irlandcha atoqli ot(Houlihan)dan]-Bezori. (2006)

Ayrim so'zlarda ma'no miqdoridagi farqlarni ko'rishimiz mumkin:

Blokada [r<ingl] 1.harb.Dushman qal'asi, shahrining ayrim qismi yoki butun maydonni qurshab olish, qamal qilish:qamal holati,muhosara.

2. Siyos.Biror davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan yakkalab qo'yishga, uning boshqa davlatlar bilan aloqasini uzib qo'yishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tadbirlar sistemasi. (1981)

Blokada[ingl.blokcade-qamal;qurshamoq]-Dastlabki 1va 2ma'nolar.

3. Kasalliklarni davolashning biror a'zo yoki sistema faoliyatini vatincha to'xtatishdan iborat bir usuli. (2006)

Start [r<ingl]-Sport musobaqalarining boshlanish o'rni.Uchish apparatining yerdan ko'tarilish joyi. (1981)

Start [ingl.start-jo'nab ketish,harakatning boshlanishi] 1.Masofani bosib o'tish va oldinga harakat qilish bilan bog'liq sport musobaqalarining boshlanish o'rni.

2.Yugurish, velopoyga va sh.k.larning boshlanish payti.

3. Uchish apparatining yerdan ko'tarilish joyi va payti. (2006)

Park [r<ingl]-1.Gulzor, daraxtzor va xiyobonlar bo'lgan:dam olish, ko'ngil olish uchun mo'ljallangan katta bog'. (1981)

Park [ingl.park<lot.parricus-ixtiro qilingan o'rab olingan joy] Dastlabki birinchi ma'no.

2.Transport vositalari turadigan va ularga xizmat ko'rsatiladigan joy.

3. Xalq xo'jaligi, sanoat tarmog'i, korxona va shu kabilarga qarashli transport yoki ishlab chiqarish vositalari majmui.

4.harb. Harbiy mashinalar va boshqa texnikalar saqlanadigan, ta'mirlanadigan hudud; shuningdek, harbiy mulk saqlanadigan statsionar(ko'char) yoki ko'chmas ombor. (2006)

Reyd[r<ingl]-Davlat yoki jamoat tashkilotlari yoki matbuot organlari topshirig'iga muvofiq to'satdan o'tkaziladigan tekshirish. (1981)

Reyd[ingl.raid-yopirilib kelish, bostirib kelish<bereit-tayyor, shay] Dastlabki 1-ma'no.

2.harb.Dushmanning bazalariga, shtab va boshqa obyektlariga qarshi jangovar ish olib borish maqsadida harakatdagi harbiy yoki partizan otryadlarining dushmanning orqa tomoniga o'tishi. (2006)

Tank[r<ingl]-1.Zirhlangan, to'p va pulemyot bilan qurollangan har qanday og'ir yo'lda ham yura oladigan gusenitsali og'ir yuk mashinasi. (1981)

Tank[ingl.zirx bilan qoplangan, gusenitsali harbiy mashina<shu mashina ixtirochisining familiyasi (Tank)dan kelib chiqqan]Dastlabki 1-ma'no.

2.Suyuqliklarni saqlash va tashish uchun mo'ljallangan, maxsus jihozlangan katta idish. (2006)

Bunker[r<ingl]-1.Kombayn paxta terish mashinasi va sh.k larning yig'gan narsasi kelib tushadigan, yig'iladigan qism. (1981)

Bunker[ingl.bunker- ko'mir solinadigan quti] Dastlabki 1-ma'no.

2.Qum, shag'al, sement va sh.k. narsalarni qisqa muddat saqlash yoki tashishga mo'ljallangan idish.

3.Mudofa uchun mo'ljallangan yer osti inshooti. (2006)

Bufer[r<ingl]-Paravoz, vagon, avtomobil va shu kabilarda urilish zarbini kamaytiruvchi qurilma. (1981)

Bufer[ingl.buffer, buff-zarbani yumshatish]1.Transport vositalarida paydo bo'ladigan zarbalarni yumshatish uchun o'rnatiladigan, odatda pishiq po'lat, rezina yoki plastmassadan tayyorlanadigan moslama.

2.O'zaro zid yoki urush holatidagi davlatlar o'rtasidagi qalqon bo'lgan boshqa kichik davlat. (2006)

Dastlabki(1981) lug'atda rus, grek va boshqa tillardan o'zlashgan deb hisoblangan so'zlar yangi lug'atda ingliz tilidan o'zlashma sifatida qayd etilgan:

Byudjet[fr<ingl]-Muayyan vaqt uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan va qonuniy tarzda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi. (1981)

Byudjet[ingl.Budget-pul,hamyon] Dastlabki 1-ma'no.

2.Shaxsiy kirim-chiqim majmui. (2006)

Bunga aniqlik kiritish uchun "A comprehensive pronouncing and Explanatory dictionary of the English language" kitobiga murojaat qilishga to'g'ri keldi;

Budget.noun. Statement respecting the finances.(Moliyaga oid bayonot).

Registratsiya[r<lot.]-Ro'yxat qilish, ro'yxatga olish, qayd etish. (1981)

Registratsiya[ingl.registration<lot.registrum-qayd etilgan, yozib qo'yilgan]- Ro'yxat qilish, ro'yxatga olish, qayd etish. (2006)

Registration, n. the act of recording.(*yuqoridagi tarjimani beradi*).

Vattmetr[r]-Elektr tokining quvvatini o'lchaydigan asbob. (1981)

Vattmetr[ingl.watt+yunon.metron-o'lchov]- Faol elektr quvvatini Vatt larda o'lchaydigan asbob. (2006)

Vulkanizatsiya[r]-Kauchikka oltingugurt,qurum va boshqa materiallar qo'shib qizitib rezinaga aylantirish va rezina buyumlar tayyorlash protsessi. (1981)

Vulkanizatsiya[ingl.vul-canization-kauchikni rezinaga aylantirish]1. Vulkanizatsiya agentligi deb ataluvchi oltingugurt, organik peroksidlar v aba,zi sintetik smolalar ishtirokida kauchikni rezinaga aylantirish va rezina buyumlar tayyorlash jrayoni.

2.Avtomobil, velosiped, mototsikllarning rezina kameralarini, shinalarini yamash.(2006)

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, dastlabki(1981)lug'atda ingliz tilidan o'zlashgan deb qaralgan so'zlar yangi nashrda(2006) boshqa tillarda o'zlashgan deb keltirilgan:

Ballast [r<ingl]-kemaning belgilangan qismi suvga botib ustuvor turishi uchun kemaga ortiladigan yoki uchush apparatining ko'tarilish kuchini to'g'irlab turish uchun solinadigan og'ir yuk. (1981)

Ballast[goll.bal-qum, last-yuk]-Kemalar,aerostat, lokomotiv va h.k.ning harakatlanish sifatini yoki uchish balandligini rostlash uchun ularga ortiladigan yuk.

2.Temir yo'llari shpallari tagiga qum, shag'al, tosh kabi materiallardan yotqiziladigan qatlam.

3.ko'chma.Keraksiz yuk. (2006)

Boston[r<ingl]-Yuqori navli kostyumbop bir turli jun gazlama. (1981)

Boston[fr.Boston shahar nomidan olingan]-Mayin qo'y junidan sarjali o'rilish usulida to'qilgan kostyumbop va paltobop gazlama. (2006)

Hammamizga ma'lumki, XXI asr texnika asri.Ilm-fan sohasidagi mislsiz yutuqlar, texnika taraqqiyotida paydo bo'lgan yangi atamalar tilimizning lug'at boyligiga ta'sir qilmay qolmadi, albatta.

Bu jarayonga kompyuter tiliga aylangan ingliz tilining ayrim so'zlari leksik qatlamimizdan o'zlashma so'z sifatida o'rin egallay boshladi:

Bodybuilding[ingl.bod-building-tana tuzilishi]-Muskullar rivojlantirish maqsadida trenajarlarda bajariladigan atletik mashqlar tizimi(2006).

Brifing[ingl.biefing-yo'l-yo'riq<brief-qisqa; qisqacha xulosa]-Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtai nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish to'g'risidagi uchrashuvi. (2006)

Bifshteks[ingl.beefsteak: beef-mol go'shti,steak-qiyma,parcha]-Qovurilgan mol go'shti va qayladan iborat quyuc ovqat. (2006)

Barter[ingl.barter-tovar ayirboshlash]iqt.-Pul mablag'lari ishtirokisiz bevosita tovarga tovar ayirboshlash va shu haqidagi shartnoma. (2006).

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, til hamisha taraqqiyotda bo'luvchi hodisadir. Shuning uchun unda tadqiqlanishi kerak bo'lgan masalalar juda ko'p. ayniqsa, tilning rivoji uchun muhim manbalardan biri bo'lgan lug'atlar takomili va tadqiqi har doim o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Tillararo qiyosiy tadqiqotlar uchun ham bu juda muhim jihatlardan biri bo'lib kun tartibiga chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.— Москва, “Русский язык”, 1981.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 2006.
3. Pronouncing and explanatory dictionary of the English language. – Boston, “Burlington, vt. published by chaucey Goodrich”, 1831.
4. S.Normamatov, Leksikografiya asoslari. – Toshkent, “Nodirabegim”, 2021.